

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**

**"TASDIQLAYMAN"**

Navoiy davlat pedagogika instituti  
rektori M. B. Kalonov  
2024 VI. 28



**IQTISODIY VA IJTIMOIV GEOGRAFIYA METODOLOGIYASI**  
**FANINING O'QUV DASTURI**

<b>Bilim sohasi:</b>	<b>500 000 – Tabiiy fanlar, matematika va statistika</b>
<b>Ta'lim sohasi:</b>	<b>530 000 – Fizika va tabiiy fanlar</b>
<b>Mutaxassislik:</b>	<b>70530201 - Geografiya</b>

Navoiy – 2024

Fan/mavzu kodi HGMM1206		O'quv yili 2024-2025	Semestr 2	Kreditlar 6	
Fan/modul turi Majburiy		Ta'lim tili O'zbek		Haftadagi dars soatlari 4	
1.	Fanning nomi	Ma'ruza	Amaliy mashg'ulot (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
		Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya metodologiyasi	30	30	120
2.	<p style="text-align: center;"><b>I. Fanning mazmuni</b></p> <p><b>1.1. Fanni o'qitishdan maqsad</b> – talabalarda iqtisodiy va ijtimoiy geografiya fanining ilmiy-nazariy va metodologik asoslari, amaliy ahamiyatiga doir bilimlarni yanada boyitish, fanining shakllanish va rivojlanish qonuniyatlarini aniqlash, uning istiqbol va muammolarini aniqlash.</p> <p><b>1.2. Fanning vazifasi</b> - talabalarga fanning metodologiyasi, xorijiy mamlakatlardagi holati; uning asosiy nazariya va tushunchalari, ilmiy dunyoqarash tamoyillari, bilishning umumilmiy va maxsus usullari, uning ilmiy va amaliy ahamiyati; fanda tizimli yondashuv; iqtisodiy, sotsial, tibbiy geografik va geoekologik tadqiqotlarning metodologik asoslari; hozirgi zamon iqtisodiy-ijtimoiy geografiya fanidagi ilmiy maktablar; respublika va jahon mamlakatlari etakchi geograf olimlarining asosiy g'oya va nazariyalarini bilish, amaliyotda qo'llay olishga o'rgatishdan iborat</p> <p><b>II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)</b></p> <p><b>1-mavzu. Fanlar tizimida ijtimoiy (iqtisodiy va ijtimoiy) geografiya</b> Zamonaviy fanlar tizimi. Geografiya yagona fan bo'lib hisoblanadimi yoki turli fanlar tizimidan iboratmi? Geografik tadqiqotlar maydoni. Tabiiy, ijtimoiy va texnik fanlar qirrasida geografik bilimlar tizimining shakllanishi. Iqtisodiy va sotsial (ijtimoiy) geografiyaning ichki tarkibi.</p> <p><b>2-mavzu. Fanning tadqiqot ob'ekti va predmeti muammosi</b> Tadqiqot sub'ekti, ob'yekti va predmeti tushunchalari o'rtasidagi farqlar. Geografik bilimlar tizimida tadqiqot ob'ekti umumiy bo'lishi mumkinmi? Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya fanining tadqiqot ob'ekti va predmeti. Ijtimoiy geografik simplekslar (elementar ob'ektlar), taksonlar (zonalar, rayonlar), birikmalar, majmualar, tizimlar, geografik jarayonlar va munosabatlar, joylashtirish va mintaqaviy rivojlanish omillari ijtimoiy-iqtisodiy geografik tadqiqotlar ob'ekti sifatida. Iqtisodiy rayonlashtirishning metodologik masalalari.</p> <p><b>3-mavzu. Mantiq va fanlar metodologiyasi</b> "Fan" tushunchasining ta'rifi. Fanning qimmati. Tomas Kunning fanda paradigmalarmashinuvi konsepsiyasi. «Paradigma» tushunchasi. Paradigmalarmashinuvi. Ilmiy bilimlarning rivojlanishi borasidagi Kunning muqobil qarashlari. Imre Lakatosning tadqiqotchilik dasturlari konsepsiyasi.</p>				



Karl Popperring fanlar rivoji xususidagi qarashlari. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiyada paradigmalarning mavjudligi?

#### **4-mavzu. Geografiyada falsafiy maktablar**

Falsafa va geografiya. Fanlar nazariyasi va metodologiyasi. Geografiya fani nazariyasi va metodologiyasi. Ijtimoiy geograflar orasida birmuncha mashhur bo'lgan asosiy falsafiy tamoyillar. Turli falsafiy maktablar tarafdorlarining geografik tizimlar va jarayonlarning ob'ektiv mavjudligi va ularni anglash muammosi borasidagi qarashlari.

#### **5-mavzu. "Fan metodologiyasi" va "ilmiy tadqiqotlar metodikasi" tushunchalari o'rtasidagi farq**

Tadqiqot usuli. Fan metodologiyasi va ilmiy tadqiqotlar metodikasi tushunchalari o'rtasidagi farqlar. Bilishning umumilmiy va maxsus usullari. Ilmiy dunyoqarash usullari. Ilmiy tadqiqot metodikasini tashkil etuvchi materiallarni tanlash, faktlarni (adabiyotlar, vizual, xulq-atvor, statistik, kartografik, matematik, balans va boshqalar) tahlil qilish va umumlantirishning o'ziga xos usullari.

#### **6-mavzu. Geografiya fani rivojlanishining konsepsiya va strategiyasi**

Geografiya fanida frontal va fundamental tadqiqotlar, geografiya fanining iqtisodiylashuvi, ijtimoiylashuvi hamda geografiya fanida differentsiatsiya va integratsiya jarayonlarining borishi

#### **7-mavzu. Geografiya va amaliyot**

Geografiya fanining amaliy ahamiyatini oshirish muammolari, atrof-muhit muhofazasi va geokologik muammolar, amaliy geografiya va uning ilmiy-amaliy ahamiyati.

#### **8-mavzu. Iqtisodiy va sotsial geografiyada ilmiy tadqiqotlarning prinsip va usullari hamda uni tashkil etish masalalari**

Iqtisodiy va sotsial jarayonlar va ularning o'rganishning geografik jihatlari, geografik tadqiqotlarning prinsiplari, tadqiqot usullari va ularni qo'llash usullari, Iqtisodiy va ijtimoiy geografiyada ilmiy tadqiqotlarni tashkil etish xususiyatlari, Iqtisodiy va ijtimoiy geografiyada ilmiy tadqiqotlarni tashkil etishning tayyorlov bosqichi, tadqiqotlarning dala bosqichi, Iqtisodiy geografik tadqiqotlarning yakunlov bosqichi

#### **9-mavzu. Aholiga xizmat ko'rsatish sohalari geografiyasi hamda aholini tadqiqot obyekt sifatida o'rganish**

Aholiga xizmat ko'rsatishning ijtimoiy vazifasi va ahamiyati, ijtimoiy infrastruktura, aholiga xizmat ko'rsatish sohasini geografik o'rganish, aholini ilmiy tadqiq qilishning maqsadi va vazifalari, aholi soni va takror barpo bo'lishi, aholi migratsiyasi, aholi tarkibi hamda aholi joylashuvini o'rganish.

#### **10-mavzu. Aholi punktini iqtisodiy geografik o'rganish**

Geourbanistika fanining fanlar tizimida tutgan o'rni, shaharlarning geografik o'rganish masalalari hamda ularning iqtisodiy-ijtimoiy ahamiyati. Qishloq joylar haqida tushuncha va qishloq aholi punktlarining iqtisodiy geografik o'rni.

#### **11-mavzu. Xo'jalikni geografik o'rganish**

Sanoat tarmog'i haqida tushuncha, sanoatning milliy iqtisodiyotda tutgan



o'zmi, sanoat geografiyasiga doir tadqiqotlar. Qishloq xo'jaligi haqida tushuncha va uning ijtimoiy ahamiyati hamda ilmiy amaliy ahamiyati.

### **12-mavzu. Sotsial geografiyaga oid tadqiqotlar**

Sotsial geografiyaning tuzilishi uning geografik tadqiqotlarda o'ziga xos xususiyati, sotsial geografik tadqiqotlarning rivojlanishi.

### **13-mavzu. Geosiyosat va siyosiy geografiyada tadqiqotlarni tashkil etish**

Geosiyosat va siyosiy geografiya fanining tadqiqot obyekti va predmeti, geografik determinizm, geosiyosat va siyosiy geografiyaning shakllanish xususiyatlari.

### **14-mavzu. Ilmiy tushuntirishning induktiv vadeduktiv yo'li**

Induksiya va deduksiya ilmiy tafakkur (bilish) ning usuli sifatida. Ilmiy tushuntirishning induktiv yo'li. Xususiylikdan umumiylikka. Ilmiy tushuntirishning deduktiv yo'li. Umumiylikdan xususiylikka. Ilmiy farazlarni qo'yish. Ilmiy farazni tekshirish. Nazariya va qonunlarning qurilishi. Nazariy va empirik tadqiqotlar o'rtasidagi bog'liqlik.

### **15-mavzu. Geografiya fanining vujudga kelishi**

Antik geografiya. Anaksimandr. Gippokrat. Pifey. Aristotel. Eratosfen - "geografiyaning otasi". Strabon. Ptolemeyning geografik qarashlari. Arab geograflarining dunyoqarashlari. O'rta Osiyolik allomalarining geografiya faniga qo'shgan hissasi. Al-Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino va boshqa mahalliy olimlarning geografiya faniga oid fikrlari. Buyuk geografik kashfiyotlar davrida geografik g'oyalarning rivojlanishi. Kameral statistika paradigmasi. Ekspeditsiya-tadqiqotlari paradigmasi.

### **16-mavzu. XVIII - XIX asrlarda geografik tadqiqot metodlari, vazifalarining o'zgarishi hamda yaratilgan muhim nazariyalar**

Geografiyaga boshqa fanlarning ta'siri. Statistika va geografiya. G.Axenval, V.Byushing, V.Petti, V.N.Tatishev, M.V.Lomonosov. Immanuel Kant asarlarining geografik ahamiyati. Geografik kashfiyotlar va sayohatlar. A.Gumboldt va geografik g'oyalarning rivojlanishi. K.Ritterning geografik qarashlari. I.Tyunen - ilk hududiy modellar muallifi. K.I.Arsenev iqtisodiy rayonlashtirishning asoschisi. Elize Reklyu. A.Gettnerning xorologik konsepsiyasi.

### **17-mavzu. Geografik determinizm, possibilizm, landshaft va mintaqaviy paradigmalari**

F.Ratselgacha bo'lgan davrdagi deterministik g'oyalar. Geografik determinizm. Possibilizm. N.N. Baranskiyning geografik nigilizm va geografik fatalizm borasidagi tanqidiy qarashlari. Dastlabki landshaft tamoyillari. Mintaqaviy tadqiqotlar. Richard Xartshomning geografiya muammolari borasidagi qarashlari.

### **18-mavzu. Miqdoriy inqilob va tizimli paradigma**

Fred Sheferning geografik qonunlarning shakllanishi borasidagi chaqirig'i. 1960-1970 yillarda AQSH va Evropada matematikaning urfga aylanishi. Fanga tizimli yondoshuvni tadbiq etish. Karl Lyudvig fon Bertalanfi, Devid Xarvi bo'yicha "tizim" tushunchasining mohiyati. Tizimli paradigma (hududiy



tuzilmalar paradigmasi). R.Dj.Chorli va B.A.Kennedi bo'yicha tizimlarning to'rt tipi. Geografik tizimlarga misollar.

**19-mavzu. Iqtisodiy geografiyaning nazariy-metodologik asoslari**

A.Smit, D. Rikardo ilmiy tadqiqotlari. "Tyunen xalqalari" modeli. Sanoat shtandorti g'oyasining shakllanishi. Valter Kristallerning "markaziy o'rinlar" modeli va Avgust Lyoshning "iqtisodiy landshaft" tamoyili. O'sish qutblarini nazariyasi. O'sish qutblarini aniqlash metodologiyasi. Iqtisodiy geografiyaning iqtisodiy rayonlashtirish

**20-mavzu. Iqtisodiy-ijtimoiy geografiya, uning ichki tarkibi**

Iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning fanlar tizimida tutgan o'rni, Professor A.Soliyev qarashlariga ko'ra tarmoqning ichki tuzilishi, sotsial geografiya fanining rivojlanishi

**21-mavzu. Tabiat va jamiyat o'zaro aloqadorligi bilan bog'liq tadqiqotlarning nazariy-metodologik asoslari**

Inson va tabiatning o'zaro ta'sirini o'rganishda geografiyaning o'rni. "Ekologiya", "tabiatdan foydalanish", "ijtimoiy ekologiya", "inson ekologiyasi", "geoeologiya" tushunchalarining o'zaro bog'liqligi. Barqaror rivojlanish konsepsiyasining geografik tadqiqotlarga ta'siri. Ishlab chiqarishni hududiy joylashtirishga ekologik omilning ta'siri. Ortiqcha xarajatlar. Eksternallarning salbiy ta'siriga qarshi kurash usullari.

**22-mavzu. Tibbiyot geografiyasining nazariy va uslubiy asoslari**

Turli xil kasalliklarning tarqalishi bilan bog'liq tadqiqotlar. Tanatologiya. Onkogeografiya. Tibbiy geografik kartografiya. Mintaqaviy tibbiy geografiya (tibbiyot mamlakatshunosligi). O'choq hosil qiluvchi kasalliklar geografiyasi. Mavsumiy kasalliklar va ularni geografik o'rganish. Tibbiy-geografik tadqiqot usullari.

**23-mavzu. XX asrda jahon geografiya fanining rivojlanishi**

Xorij geografiyasi rivojlanishining umumiy xususiyati, xorologizmning bir ko'rinishi sifatida noyoblik konsepsiyasi, ijtimoiy-siyosiy konsepsiyalar, tarixiy-geografik ilmiy maktablar, zamonaviy radikal (so'l) geografiya, xorijiy landshaft konsepsiyalari

**24-mavzu. Ijtimoiy geografiyada prognozlashtirish**

Geografik prognoz. Geografik prognozlar tasnifi: ob'ekt bo'yicha, tarkibi bo'yicha (qisman va yaxlit prognozlar), hudud bo'yicha, vaqt bo'yicha, yondoshuvlar bo'yicha. Ijtimoiy geografik prognozning uslubiy asoslari. Prognozlash usullari. Prognozlash bosqichlari. Geografik prognozlarga misollar.

**III. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar**

Fan bo'yicha rejalashtirilgan amaliy mashg'ulotlar davomida nazariy bilimlar mustahkamlanadi. Amaliy mashg'ulotlarda asosiy e'tiborni geografik o'rgatishga qaratish lozim. Ma'lum sabablarga ko'ra ma'ruzaga kirmagan va murakkab bo'lgan tushunchalarni amaliy mashg'ulotlarda ko'rib o'tish, kartani o'qish, tushinish va yozuvsiz karta bilan ishlash yo'llarini amaliy mashg'ulotlarda ko'rib o'tish maqsadga muvofiq.



**Amaliy ishlarga tavsiya etiladigan mavzular:**

1. Strabon va rim geografiya maktabi
2. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya fanining ob'ekti va predmetini tahlil qilish
3. Rus olimlarining geografiyaga qo'shgan hissasi
4. Iqtisodiy va sotsial geografiyada asosiy termin va tushunchalar tahlili
5. Ilmiy tadqiqot ishining g'oyasi, mavzusi, ob'ekti va predmetini aniqlash
6. Iqtisodiy geografik tadqiqotlarda vizual, geografik taqqoslash, kartografik, statistik usullarni qo'llash
7. Ixtiyoriy olingan mavzular bo'yicha MBIning tayyorgarlik, dala, qayta ishlash bosqichlari rejasini tuzish
8. Ijtimoiy-demografik so'rov usuli. Anketa tuzish, o'tkazish va tahlil qilish uslubi
9. Ixtiyoriy olingan mavzular bo'yicha statistik ma'lumotlar to'plash
10. Ixtiyoriy olingan mavzular bo'yicha MBI dasturini tuzish
11. Arab geograflari va o'rta asrlarda geografiya
12. O'rta Osiyo mutafakkirlarining jahon geografiya fani rivojiga qo'shgan hissasi
13. Falsafa va geografiya o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik
14. Tadqiqot usullarini tahlil qilish
15. Ilmiy tushuntirishning induktiv va deduktiv yo'li
16. Geografik kashfiyotlar va birinchi nazariy umumlashmalar
17. Beruniy va geografiya
18. Buyuk geografik kashfiyotlar davrida geografik g'oyalarning rivojlanishini o'rganish
19. Ekspeditsiya-tadqiqotlari, tijorat geografiyasi va kameral statistika paradigmalarning o'zaro ta'siri va rivojlanishini tahlil qilish
20. XVIII asr va XIX asr birinchi yarmida geografiya fanida yaratilgan muhim nazariyalarni o'rganish
21. Buyuk geografik kashfiyotlar
22. Temuriylar davrida geografiya
23. XX asrda jahon geografiya fanining rivojlanishi
24. XX asrning birinchi yarmida geografiyaning ijtimoiy tarmog'ida milliy maktablarning shakllanishi
25. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiyada tizimli yondoshuv
26. XX asrning ikkinchi yarmi va XXI asr boshlarida inson geografiyasida tadqiqot usullari evolyusiyasi
27. Bozor iqtisodiyoti sharoitida iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning rivojlanishi
28. Iqtisodiy geografiyada joylashtirish nazariyalarini tahlil qilish
29. Tabiiy va iqtisodiy geografiyada hududiy majmualarni sxematik o'rganish
30. Iqtisodiy geografik prognozlarda ekstrapolyasiya, ekspert va balans usullari

**IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar**

1. Strabon va Rim geografiya maktabini o'rganish.

2. Ptolemeyning geografik qarashlarini kartaxema yordamida tahlil qilish
3. Tomas Kun, Imre Lakatos va Karl Popperning fanlar rivojlanishi bilan bog'liq qarashlarini taqqoslash.
4. Professor A.S.Solievning iqtisodiy geografiya tarixidagi roli va uning ilmiy maktabi
5. D.N. Anuchin, A.S. Berg, V.V. Dokuchaev A.Gettnerning xorologik konsepsiyasi
6. Elize Reklyu va fransuz geografiyasi
7. O'zbekistonda geografiya. N.L. Korjenevskiy, Yu.A.. Skvorsov, O.Yu. Poslavskaya, N.D. Dalimov, X.X. Xasanov, Z.M. Akramov, A.R. Rafiqov va b.
8. Ekologik barqaror rivojlanishga o'tish va salbiy eksternallar ta'siriga qarshi kurash usullari usullari.
9. "Endemik kasalliklar o'choqlari, yuqumli-parazitar kasalliklar", "nozoekologiya", "nozogeografik vaziyat" "nozogeografik o'choq va areal", "nozogeografik rayon", "nozogeografik majmualar" tushunchalari tahlili.
10. Fanda paradigmalarmashinuvi konsepsiyasi (Tomas Kun). Muqobil paradigmalarm..
11. «Paradigma» tushunchasi. Paradigmalarmashinuvi.
12. Imre Lakatosning tadqiqotchilik dasturlari konsepsiyasi
13. Yagona geografiya yoki geografik fanlar tizimi.
14. Geografik tadqiqotlarda statistik ma'lumotlar tahlili
15. GAT texnologiyalari, kosmik materiallardan foydalanish

**Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha magistrlar tomonidan referatlar tayyorlash va ularni taqdimot qilish tavsiya etiladi.**

**V. Kurs ishini tashkil etish bo'yicha ko'rsatmalar**

1. Ptolemeyning geografik qarashlarini kartaxema yordamida tahlil qilish.
2. Arab geograflari va o'rta asrlarda geografiya.
3. Buyuk geografik kashfiyotlar davrida geografik g'oyalarning rivojlanishini o'rganish.
4. Tabiiy geografiya va uning tarkibiy tuzilishini sxematik o'rganish.
5. Geografiyaning ichki tarkibi.
6. Tabiiy va iqtisodiy - ijtimoiy geografiyaning shakllanish manbalari.
7. Geografiya fanining rivojlanishidagi asosiy yo'nalishlarni aniqlash.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev asarlarida geografiya.
9. Tabiiy va iqtisodiy geografiyada hududiy majmualarni sxematik o'rganish.
10. Kompleks va kompleks yondashuv.
11. Tabiiy va iqtisodiy geografiyada prognoz, ularning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash.
12. Geografik bashoratlashda ekstrapolyasiya, ekspert va balans usullaridan foydalanish.
13. Yaqin va uzoq muddatga mo'ljallangan prognozni amalga oshirish.



14. Barqaror rivojlanish konsepsiyasi.

15. GIS texnologiya, kosmos materiallaridan foydalanish.

3. **VI. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)**

**Fanni o'zlashtirish natijasida magistr:**

- ▶ iqtisodiy va ijtimoiy fanining shakllanishi, metodologiyasi, xorijiy mamlakatlardagi holati, fandagi ilmiy maktablari, uning asosiy nazariya va tushunchalari, tarkibiy qismlari, asosiy termin va tushunchalari, tadqiqot usullari, paradigmalari haqida tasavvur va bilimga ega bo'lishi;
- ▶ talaba respublika va jahon mamlakatlari etakchi iqtisodiy geograf olimlarining asosiy g'oya va nazariyalarini bilishi, iqtisodiy va ijtimoiy geografiya fani va ta'limidagi asosiy muammolarni, ularni hal etish yo'llarini bilishi, mintaqalar aholisi va iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishi bilan bog'liq statistik ma'lumotlar asosida mamlakat iqtisodiyotini tahlil qilish va xulosalar chiqarish; prognoz qilish bo'yicha ko'nikmalariga ega bo'lishi;
- ▶ talaba geografik tadqiqotlarda rayonlashtirish masalalarini tahlil qilish va kelajak istiqbollari bo'yicha xulosalar chiqara olish, geografik tuzilmalar va jarayonlar bilan bog'liq muammolar to'g'risida aniq malakalariga ega bo'lishi kerak

4. **Ta'lim texnologiyalari va metodlari:**

- Ma'ruzalar;
- Interfaol keys - stadilar;
- Kartografik (kartalar ma'lumotlari asosida mantiqiy fikrlash, tarmoqlar dinamikasini tahlil qilish);
- Guruhlarda ishlash;
- Taqdimotlarni qilish;
- Induidial loyihalarni himoya qilish.

5. **VII. Kreditlarni olish uchun talablar:**

Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ishni topshirish.

- 6.
1. Komilova N.K., Jumaxanov Sh.Z. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya metodologiyasi. Darslik. Наманган. "NAMANGAN", 2021.
  2. A.S.Solliyev, N.K.Komilova, S.L.Yanchuk, Sh.Z.Jumaxanov, F.T.Rajabov. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya. Darslik. 2019
  3. Янчук С.Л. Экономическая и социальная география. Учебное пособие. – Т.: Ijod-Press, 2019.
  4. Komilova N.Q., Jumaxanov Sh., Rajabov F. Inson geografiyasi. O'quv qo'llanma. Т.: "Universitet", 2018.

**Qo'shimcha adabiyotlar:**

5. Мирзиёев Ш.М. Танқидий таҳлил, катъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик – ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик коидаси бўлиши керак. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2016 йил якунлари ва 2017 йил истикболларига



	<p>багишланган мажлисидаги Ўзбекистон Республикаси Президентининг нутқи. // Халқ сўзи газетаси. 2017 йил 16 январь, №11.</p> <p>6. Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. – Т.: Ўзбекистон, 2016. - 56 б.</p> <p>7. Мирзиёев Ш.М. Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш – юрт тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови. – Т.: Ўзбекистон, 2017. - 48 б</p> <p>8. Мирзиёев Ш.М. Буёқ келажакимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга кураемиз. – Т.: Ўзбекистон, 2017. – 488 б.</p> <p>9. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги ПФ-4947-сонли “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги Фармони. <a href="http://www.lex.uz">www.lex.uz</a>.</p> <p>10. Солиев А.С. Иқтисодий география: назария, методлар ва амалиёт. –Т., 2013.</p> <p>11. Голубчик М.М. и др. История географии. Учебное пособие. – Смоленск, 1998.</p> <p>12. Поросенков Ю.В., Поросенкова Н.И. История и методология географии. –Воронеж, 1991.</p> <p>13. Максаковский В.П. Историческая география мира.-М., Экопрос, 1999.</p> <p style="text-align: center;"><b>Ахборот манбаалари</b></p> <p>14. <a href="http://www.lex.uz">www.lex.uz</a> – Ўзбекистон Республикаси Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси.</p> <p>15. <a href="http://www.stat.uz">www.stat.uz</a> (O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi)</p> <p>16. <a href="http://demography.narod.ru">http://demography.narod.ru</a>.</p> <p>17. <a href="http://www.demoscope.ru">www.demoscope.ru</a>.</p>
7	<p><b>Navoiy davlat pedagogika instituti tomonidan ishlab chiqilgan va Institut Kengashining 2024 yil 6-sentyabrdagi qarori bilan tasdiqlangan</b></p>
8	<p><b>Fan/modul uchun mas`ullar:</b>  <b>Xoliqova Mahbuba Orifjonovna</b> – Navoiy davlat pedagogika instituti Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari kafedrasida katta o‘qituvchisi dots.v.b. (PhD)</p>
9	<p><b>Taqrizchilar:</b>  <b>Qodirova M.M.</b> - Navoiy davlat pedagogika instituti Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari kafedrasida katta o‘qituvchisi  <b>Raxmatov Yu.B.</b> - Navoiy davlat pedagogika instituti Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari kafedrasida dotsenti.</p>

Kafedra mudiri:



DSc, dots. S.R.Shodiyev

№ \_\_\_\_\_